

### STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASINI TADBIQ ETISHDA ELEKTRON TA'LIM RESURLARIDAN FOYDALANISH.

Sidiqova Yulduz Sobirovna

*Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi*

**Annotasiya:** *Taraqqiy etib borayotgan informatsion vositalar jamiyatimizda ijtimoiy rivojlanishining asosini belgilovchi an'anaviy imkoniyatlar bilan bir qatorda insonlarning qobiliyati, tashabbuskorligi, ishga ijodiy yondashishi, intelektual faoliyati, mustaqil ravishda o'z bilim va ko'nikmalarini takomillashtirishi kabi omillar tashkil etadi. Katta hajmidagi ma'lumotni saqlash, uzatish, qabul qilish bilan bog'liq axborot yaratish jarayoni inson faoliyatini turli soxalarida kompyuter texnologiyalarini rivojlantirishlarini ko'zda tutadi. Inson tafakkuri shu qadar taraqqiy etib bormoqdaki, bunda texnikalashtirish va kompyuterlashtirish jarayoni nafaqat ishlab chiqarishning turli soxalari, balki madaniyat va ta'lim soxalariga ham dadil kirib bormoqda.*

**Kalit so'zlar:** AKT, bilim, animatsiya.

Kompyuter texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishi ta'lim jarayonini yangi bosqichga ko'tardi. Bu o'z o'rnila ta'lim mazmunini, metod va shakllarini qayta ko'rib chiqish uchun yangi bilim hamda ko'nikmalar bilan yanada boyitish zaruriyatini tug'dirdi. Bugungi kunda jamiyatimizning turli sohalarida faoliyat ko'rsatuvchi mutaxassislarining professionallik darajasi ularning kompyuter tehnologiyalarini egallaganligi bilan ham belgilanadi. Bu hol zamon talabiga aylanib qoldi. Mazkur talabga javob berish uchun mutaxassislarini tayyorlash jarayonida, ya'ni ta'lim muassasalarida yetarli baza yaratilishi kerak. Hozirgi vaqtida ta'lim muassasalarida yangi pedagogik texnologiyalarning ilmiy asoslarini yaratish, ularni tasniflash, metodik ahamiyatini belgilash kabi dolzarb muammolar ustida ish olib borilmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'lim-tarbiya jarayonida multimedia texnologiyasidan foydalanishni amalga oshirish uchun, avvalo, multimedia to'g'risida asosiy tushunchalarni qarab chiqamiz. Multimedia atamasining lug'aviy ma'nosi [multum+medium] (yoki [ingl. multi+media]) kabi ikkita so'z yig'indisidan tashkil topgan bo'lib, multi - ko'p, media - muhit manosini anglatadi. Atama ilmiy va o'quv adabiyotlarida ko'p vositalilik, multimedia muhiti, ko'p qatlamli muhit, multimedia - bittadan ko'p bo'lgan mediadir, mahsulot tashuvchi vosita, ma'lumot tashuvchi vosita kabi talqin qilinib kelinmoqda, xatto, ayrim adabiyotlarda hozirgacha multimedia atamasining aniq ta'rifi mavjud emasligi ham e'tirof etilgan. Hozirgi davrda multimedia atamasi ko'p kirrali bulib, turli xil tushunchalarni ifodalashga tatbiq etilib kelinmokda. Masalan, multimedia texnologiyasi; multimedia mahsuloti; multimedia didaktik vositasi va boshqalar shular jumlasidandir. Multimedia tushunchasining adabiyotlarda yoritilgan bir nechta ta'rifini keltiramiz: Multimedia, deganda turli shakldagi ma'lumotlarni qayta ishlovchi vositalar majmuasi tushuniladi. Multimedia - bu maxsus texnologiya bo'lib, dasturiy va texnik moddiy ta'minot asosida kompyuterda bir vaqtning o'zida tasviriy axborotni tovushli va harakatli holda (hattoki videofilm holatida) ifodalash imkoniyatidir. Maktabgacha yoshdagagi bolalarga mo'ljallangan multimediali texnologiyalar joriy an'anaviy texnologiyalarga nisbatan quyidagilar bilan farqlanadi: - bolalarning psixologik jihatlari; - bolalarning yoshi (5-7

yosh); - kompyuterli mashg'ulotning davomiyligi (15 daqiqa); - materialning bolalarga mosligi (multimedia shaklida); - materialning hajmi (30 daqiqaga mo'ljallangan); - materialninig murakkablik darajasi (bolalar uchun sodda materiallar tanlanadi); - ularninig faollik darajalari va hokazo. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yaratilgan multimediali kompyuter texnologiyasi variantida texnologik yondashuv quyidagicha kechadi: birinchidan, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchisining o'rganiladigan materialni o'zlashtirishini qulay qilish va osonlashtirish maqsadida material bir-biri bilan bog'liq qismlarga, bo'laklarga ajratiladi; ikkinchidan, ta'limdan mo'ljallangan natija olish uchun amallar ketma-ket bajarilishi va loyihalashtirilgan ishlar oxiriga yetkazilishi ko'zda tutiladi. Eng muhimi, ushbu texnologiyada o'rganiladigan material multimedia asosida taqdim etiladi. Bola miyasiga bunday multimedaviy ta'sir natijasida uning o'zlashtirishi yaxshilanib, mashg'ulot samaradorligi oshadi. Maktabgacha yosh davrida bolaning muloqotga bo'lган ehtiyojini qondirish va har tomonlama rivojlantirishda multimedialardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. STEAM texnologiyasida animatsiya studiyasini yaratish uchun bugungi kunda odatiy bo'lган texnik vositalar kerak bo'ladi: raqamli kamera, ovoz yozish va animatsiya dasturlari bilan ta'minlangan kompyuter yoki noutbuk. Shu bilan birga bolalar bilan multfilmlar yaratishda ma'lum shart-sharoitlarni hisobga olish, alohida vaqt ajratish, to'garak faoliyatlarini yo'lga qo'yish, ota-onalar bilan ham reja asosida ishlarni tashkil etish va tarbiyachilarining media savodxonligi talab etiladi. Animatsiya kattalar va bolalar manfaatlarini, faol harakatlarini iloji boricha yaqinlashtiradi, ijodiy muhitni yaratadi. Bolalar rassomlar, ssenariy mualliflari, rejissyorlar, aktyorlar, operatorlar bo'lishadi, bir-birlari bilan kichik muzokaralar, bevosita muloqot olib borishadi, o'z harakatlarini muvofiqlashtirishni va umumiyligi natijaga erishishni o'rganadilar. Bu jarayonda bolalar ijodkorligini muvaffaqiyatli rivojlantirishda tarbiyachilarining ota-onalarni ham jalg etish samarali natijani beradi. Bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida oddiy mashg'ulotlarga qiziqishmaydi. Animatsiya yordamida bolalarni o'quv va ijodiy faoliyatga oson jalg qilish mumkin. Animatsiyada ijodiy fikrlash erkinligi, eng muhimi, ota-onalarning bolalarni har tomonlama rivojlanishida qo'shimcha ta'lim xizmatlari yaratiladi. Bolalar asosan tasviriy faoliyatga qiziqishadi va turli xil san'at turlari orqali ijodiy g'oyalarini shakllantiradilar, ijodiy jarayonda faollik ko'rsatadilar. Maktabgacha yoshdagi bolalar o'z tengdoshlari, kattalar bilan birgalikda ijodiy hamkorlik qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar, ularning axborot kommunikatsiya texnologiyalari bilish darajasi, foydalanish samaradorligi oshadi. Ota-onalarning muhim ehtiyojlari qondiriladi. Zamonaviy bolalar doimiy ravishda multimedia vositalari bilan yuzma-yuz muloqot qilganliklari uchun, kun davomida multfilmlar tomosha qilishadi, ularni yaratilish murakkabligini anglab yetishmasada, ularda alohida ishtiyoq bo'lgani uchun o'zlarida kuch, energiya topa oladilar, o'zlarining ijodiy multfilmlarini yaratishga osonlik bilan kirishadilar. Ularning animatsiyadan foydalanishi vizual faoliyatga, AKT ga qiziqishni oshiradi, o'zlarini ijodkor sifatida tasavvur etishadi.

Yangi pedagogik texnologiyalar deganda, an'anaviy va noananaviy metodlar bilan bir qatorda ta'limni kompyuterlashtirish ham tushuniladi. Shu manoda tobora shakllanib borayotgan kompyuter-axborot madaniyati axborotni yetkazish va qabul qilishda yangi munosabatlarni vujudga keltiradi, fikrlashning yangi turini hosil qiladi. Bunda inson inofrmation koinot bilan o'zaro muloqotga kirishadi. Telekommunikasiya (telefon,

televideniye, radio) tarmoqlarining kompyuter tarmoqlari bilan birikishi yagona jahon axborot makonini-multimediani tashkil etadi. Ushbu makonning eng muhim qismi Internet tarmog'i ayniqsa uning giper-media xizmatlari (World-Vide Veb), gipermediapochta, videokonferensiyalardir. Multimedia ("ko'p muhitlik" degan ma'noni bildiradi) - zamonaliv axborotlar texnologiyasi bo'lib, kompleks tushunchani anglatadi. Multimedia axborotning turli ko'rinishlari-matn, jadval, grafika, nutq, animatsia, multiplikatsiya), video tasvir, musiqa yordamida axborotni yig'ish, saqlash, qayta ishash va uzatish vazifalarini bajaradi. Multimedia "inson-kompyuter" interaktiv (diologig) muloqotning yangi, takomillashgan pog'onasi bo'lib, unda foydalanuvchi juda keng va har tomonlama axborot oladi. Multimedia vositalaridan xordiq chiqarish, ta'lim olish va reklama kabi sohalarda foydalaniladi. Multimedia vositalari asosida maktabga tayyorlov guruuhlariga, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga ta'lim berish xozirgi kunning dolzARB masalalaridandir. Ta'lim jarayonida multimedia vositalarini qo'llash pedagogik va psixologik nuqtai nazardan juda katta ahmiyatga ega. Unda beriladigan material chuqurroq o'zlashtiriladi, vaqt ni tejash imkoniyatiga erishiladi, olingan malumot kishi xotirasida uzoq vaqt saqlanadi, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning passiv tinglovchi sifatida ishtirok etishi qisqarib, izlanuvchanlik va bilish faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan multimedia dasturlari tadbiq etiladi, ta'lim jarayoniga badiiylik kiritiladi. Boshqacha qilib aytganda, multimedia ta'limning emotsiyal-estetik ta'sirlanish, maqsadga intilish, tadqiqotchilik kabi motivlarni faolashtiradi. Ma'lumki, ta'lim oluvchi birinchi marta eshitgan mavzusining faqat to'rtdan bir qismini, ko'rgan materiallarining esa uchdan bir qisminigina eslab qoladi; ham ko'rib, ham eshitsa axborotning ellik foizini yodda saqlaydi. Interaktiv multimedia texnologiyalaridan foydalanganda esa bu ko'rsatkich 75 % tashkil etadi. Shu bois katta hajmdagi axborotni qabul qilish, tushunish hamda voqeylikka nisbatan faol va ma'suliyatli munosabatni tarbiyalashning psixofiziologik va estetik xussusiyatlarini hisobga oluvchi multimedia nazariyasini xususan multimedia pedagogikasini yaratishga intilish kerak. Multimediani qo'llash uchun quyidagi texnik vositalar kerak bo'ladi: kompyuter, lazer disklarni o'qiydigan SD ROM qurilmasi, SI-ovoz xaritasi, AS faol kolonka, SD- kompakt disk eng zamonaliv kompyuterlarda yuqoridagi qurilmalarning ba'zilari kompyuter ichiga joylashtiriladi. Multimedia vositalari asosida o'qitish jarayonini tashkil etish metodikasi an'anaviy o'qitish usulidan tubdan farqlanib, u maktabga tayyorlov guruuhlari, boshlang'ich sinf o'qituvchilari va o'quvchilar, uchun: o'quv materiallarini obrazlar ko'rinishida taqdim etish; o'qitishning differensial va individual holatda bo'lishi; o'qish va o'zlashtirish jarayonini baholab borish, teskari aloqa bog'lash; o'quv materialini o'zlashtirish jarayonida o'z-ovzini nazorat qilib borish va tuzatish; o'rganilayotgan faoliyatlarni namoyish etish va ularning o'zaro aloqadorligini kuzatish. Bu boradagi olib boriladigan ishlar ta'lim-tarbiya tizimidagi zamonaliv axborot texnologiyalarining multimedia imkoniyatlarini ta'lim-tarbiya ishlarini tashkillashtirish va joriy qilish bilan bog'liqligi, ulardan maqsadli foydalanish ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga olib keladi. Bu jarayonlarda multimedia vositasi mifiktabga tayyorlov guruuhlarida, boshlang'ich sinfda o'rganiladigan har bir fanga tatbiq etish orqali bu fanlarning o'zlashtirish qamrovini oshiradi. Bundan tashqari, boshlang'ich ta'limdagi ma'naviy-ma'rifiy ishlarni axborot texnologiyalarining dasturiy vositalari asosida multimedia imkoniyatlaridan foydalanish orqali o'zlashtirish va o'rganish jarayoni ortib boradi. Ta'limda multimedia vositalarining xussusiyatlari O'quvchilar kompyuter xotirasiga joylashtirilgan ma'naviy-ma'rifiy

yo‘nalishdagi fotosur’atlar, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni o’tkazish ssenariylari, bu yo‘nalishdagi materiallarga tegishli tayanch iboralar, atamalar va tushunchalarning mazmuni bilan tanishib boradi hamda ulardan foydalanish ko‘nikmasini o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sobirovna, S. Y. (2023). O ‘YIN ORQALI BOLA TAFAKKURI VA NUTQINI OSTIRISH. *SAMARALI TA’LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR*, 1(3), 98-99.
2. Yulduz, S. (2023). KREATIV YONDASHUVLAR ASOSIDA BOLALAR NUTQI VA TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 23(2), 87-92.
3. Yulduz, S. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA EKOLOGIK TA’LIM BERISHNING O’ZIGA XOSLIGI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 21(3), 124-129.
4. Sobirovna, S. Y. (2022). PEDAGOGNING KREATIVLIGI BOLALAR IJODIY RIVOJLANISHINING ZARUR SHARTI. *PEDAGOOGS jurnalı*, 1(1), 219-220.
5. Sobirovna, S. Y. (2022). KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O ‘QUVCHILAR BILISH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *PEDAGOOGS jurnalı*, 1(1), 158-160.
6. Sobirovna, Y. S. (2023). Methods and Tools of Economic Education in Preschool Children. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(9), 109-115.
7. Sobirovna, S. Y. (2023). METODIST FAOLIYATI ASOSLARI. SAMARALI TA’LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR, 1(5), 108-114.
8. Sobirovna, S. Y. (2023). Creativity in the work of an educator. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 361-367.
9. Sidiqova Yulduz. (2024). SYUJETLI-ROLLI O`YINLARNING BOLA FAOLIYATIDAGI AHAMIYATI. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 2(1), 44-51.
10. Sidiqova Yulduz Sobirovna. (2024). MAKTABGACHA TA’LIMDA NUTQ, MULOQOT O`QISH VA YOZISH MALAKALARINING SOHALARI. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 2(1), 52-62.
11. Sobirovna, S. Y. (2024). AESTHETIC EDUCATION AS A TOOL TO LEAD CHILDREN TO PERFECTION. *МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА*, 2(2), 354-367.
12. Yulduz, S. (2024). Estetik tarbiya bolalarni komillikka yetaklovchi vosita sifatida. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 2(2), 95-106.
13. Isomova, FATQ (2022). THE IMPORTANCE OF SPEECH DEVELOPMENT ACTIVITIES IN PREPARING CHILDREN FOR SCHOOL EDUCATION IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 947-949.

14. G'aniyevna, P. R. F. (2022, June). MAKTABGA TAYYORLOV GURUHLARI UCHUN SAVODXONLIKKA O'RGATISH MASHG'ULOTLARIDA, A'HARF-TOVUSHINI O'RGATISH METODIKASI. In E Conference Zone (pp. 38-41).
15. Tojiddinovna, I. F. A. (2024). Tarbiya turlari va ularning shaxs kamolotiga ta'siri. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(2), 429-435.
16. Tajiddinovna, I. F. (2024). Types of education and their impact on personality development. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(2), 469-475.
17. Исомова, Ф. Т. (2024). Виды образования и их влияние на развитие личности. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(2), 461-468.
18. Tojiddinovna, I. F. A. (2024). MAKTABGACHA TALIMDA "ILK QADAM" DASTURI. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 603-608.
19. Tajiddinovna, I. F. A. (2024). FIRST STEP PROGRAM IN PRESCHOOL EDUCATION. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 609-614.
20. Tajiddinovna, I. F. A. (2024). THE ISSUE OF EDUCATION IN PRIMARY EDUCATION. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 615-620.
21. Tojiddinovna, I. F. A. (2024). MAKTABGACHA TA'LIM JARAYONIDA BOLALARNING IJTIMOIY MOSLASHUVI. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 590-595.
22. O'ktam qizi Buxoro, S. M. (2022). BOLANING NUTQINI RIVOJLANTIRUVCHI O 'YINLAR. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 484-486.
23. Oktam's, S. M. (2023). Methods and Tools of Speech Development of Small Group Children in Preschool Education Organization. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(9), 104-108.
24. Jalolov, T. S. (2024). ANALYSIS OF PSYCHOLOGICAL DATA USING SPSS PROGRAM. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(4), 477-482.
25. Jalolov, T. S. (2024). ИЗУЧЕНИЕ МАТЕМАТИЧЕСКИХ БИБЛИОТЕК PYTHON: ПОДРОБНОЕ РУКОВОДСТВО. *MASTERS*, 2(5), 48-54.
26. Jalolov, T. S. (2024). ВАЖНОСТЬ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В ПРОГРАММИРОВАНИИ. *MASTERS*, 2(5), 55-61.
27. Jalolov, T. S. (2024). РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ МЛАДШИХ КЛАССОВ С ПОМОЩЬЮ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ. *MASTERS*, 2(5), 40-47.
28. Sadriddinovich, J. T. (2024). BASICS OF PSYCHOLOGICAL SERVICE. *PSIXOLOGIYA VA SOTSILOGIYA ILMYJURNALI*, 2(4), 61-67.
29. Jalolov, T. S. (2024). SPSS DASTURI FOYDALANISHDA PSIXOLOGIK MA'LUMOTLARNI TAHLLILI. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(4), 463-469.
30. Жалолов, Т. (2023). Использование математических методов в психологических данных (с использованием программного обеспечения SPSS). *in Library*, 4(4), 359-363.
31. JALOLOV, T., FAYZIEV, S., & USMONOV, A. "AQLLI ISSIQXONA" BOSHQARISH TIZIMINI MODELLASHTIRISH VA TADQIQ QILISH.

32. Ikromova, S. A. (2024). BASICS OF PSYCHOLOGICAL SERVICES. *PEDAGOG*, 7(5), 670-676.
33. Akbarovna, I. S. (2024). THE IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL MANAGEMENT IN EDUCATION. *PSIXOLOGIYA VA SOTSILOGIYA ILMUY JURNALI*, 2(4), 40-46.
34. Akbarovna, I. S. (2024). PSIXOLOGIK XIZMAT ASOSLARI. *PSIXOLOGIYA VA SOTSILOGIYA ILMUY JURNALI*, 2(4), 54-60.
35. Akbarovna, I. S. (2024). STAGES OF PSYCHOLOGICAL CONSULTATION. *PEDAGOG*, 7(4), 328-334.
36. Икромова, С. А. (2023). ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИММУНИТЕТА К ДЕСТРУКТИВНЫМ ИДЕЯМ У ПОДРОСТКОВ. *European research*, (3 (81)), 47-49.
37. Ikromova, S. (2024). PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA SHAKLLARI VA MAZMUNI. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 918-924.
38. Ikromova, S. (2024). FORMS AND CONTENT OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGY. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 933-939.
39. Akbarovna, I. S. (2024). MASTERING THE BASICS OF PEDAGOGICAL SKILLS. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 882-887.
40. Akbarovna, I. S. (2024). PEDAGOGIK MAHORAT ASOSLARINI O'ZLASHTIRISH. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 888-893.
41. Akbarovna, I. S. (2024). THE IMPORTANCE OF FORMING MATHEMATICAL CONCEPTS. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 912-917.
42. Akbarovna, I. S. (2024). MATEMATIK TUSHUNCHALARNI SHAKLLANISHINING AHAMIYATI. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 900-905.
43. Икромова, С. А. (2024). ЭТАПЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ КОНСУЛЬТАЦИИ. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 875-881.
44. Akbarovna, I. S. (2024). PSIXOLOGIK MASLAHAT BOSQICHLARI. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 860-866.
45. Akbarovna, I. S. (2024, April). BOSHLANG'ICH SINFLARDA SINFDAN TASHQARI MASHG 'ULOTLAR. In *International conference on multidisciplinary science* (Vol. 2, No. 4, pp. 27-32).
46. Akbarovna, I. S. (2024, April). BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TA'LIM MASALASI. In *International conference on multidisciplinary science* (Vol. 2, No. 4, pp. 21-26).
47. Obidovna, D. Z. (2022). GENDER DIFFERENTIATION OF MASCULINE AND FEMININE VERBALIZATION. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(05), 59-65.
48. Djalilova, Z. O. (2021). Studies on gender linguistics in the field of Uzbek language. *Academic research in educational sciences*, 2(3), 391-397.

49. Obidovna, D. Z., & Denis, S. (2021). Formulas of speech etiquette in a gender-engineered communication strategy. *Central asian journal of theoretical & applied sciences*, 2(6), 5-11.
50. Obidovna, D. Z. (2021). Comparative Analysis Of Uzbek Men's And Women's Speech Through The Prism Of Gender Linguistics. *Central Asian journal of literature, philosophy and culture*, 2(2), 22-26.
51. Obidovna, D. Z. (2022). Speech Behavior and its Gender Specificity on the Basis of the Main English Language Variants. *Middle European Scientific Bulletin*, 22, 199-205.
52. Obidovna, D. Z. (2021). Gender issues in foreign theoretical linguistics: concerning the history of the issue. *Gender issues*, 7(6).
53. JALILOVA, Z. O. (2021, March). ON THE FORMATION OF THE LANGUAGE OF SCIENTIFIC LITERATURE IN THE HISTORY OF THE ENGLISH LANGUAGE. In *E-Conference Globe* (pp. 18-22).
54. Jalilova, Z. O. (2020). Concerning the issue of terms, having a place with various morphological classes (in view of the example of the terminological arrangement of social action). *Новый день в медицине*, (4), 501-503.
55. Djalilova, Z. O., Juraev, S. S., & Kosimov, S. M. (2021). LATIN AS A PROFESSIONAL LANGUAGE OF MEDICAL WORKERS. *Международный научно-практический электронный журнал «МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА»*. Выпуск № 23 (том 1)(апрель, 2021). Дата выхода в свет: 30.04. 2021., 79.
56. Джалилова, З. О., Хасанов, К. А., & Султонов, А. А. (2021). Роль научного управления в процессе обучения высококвалифицированных врачей в новом Узбекистане. *Молодой ученый*, (26), 377-379.
57. Dzhalilova, Z. O. (2021). The Latin language's international status. *Молодой ученый*, (41), 32-34.
58. Dzhalilova, Z. O., & Mirfajziev, K. (2021). Latin as the language of medicine. *Молодой ученый*, (41), 35-37.
59. Dzhalilova, Z. O., Izomova, S. G., & Ahmedova, G. A. (2021). Intercultural communication and the Latin language. *Молодой ученый*, (24), 398-400.
60. Dzhalilova, Z. O. (2021). History of formation of Latin language. *Молодой ученый*, (41), 34-35.
61. Obidovna, D. Z. (2022). GENDER SPEECH BEHAVIOR IN THE CONTEXT OF THE SOCIO-LINGUISTIC FACTOR. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(6), 190-198.
62. Dzhalilova, Z. O., Hajdarova, N. S., & Tashpulatova, N. A. (2021). Latin in the Contemporary World. *Молодой ученый*, (24), 400-402.
63. Djalilova, Z. (2022). POLITENESS IN WOMEN'S DISCOURSE IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. *Academic research in modern science*, 1(11), 29-34.